

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI Phd.13/30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASHI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROV SHAHZOD ERKINOVICH

**SANOAT HUDUDLARNING EKOLOGIK HOLATINI MONITORING VA
BASHORATLASH UCHUN MODELLAR, HISOBLASH ALGORITMLARI
VA AXBOROT TIZIMLARI**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

BUXORO – 2023

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Nazarov Shahzod Erkinovich

Sanoat hududlarning ekologik holatini monitoring va
bashoratlash uchun modellar, hisoblash algoritmlari
va axborot tizimlari.....3

Назаров Шахзод Эркинович

Модели, вычислительные алгоритмы и
информационные системы для мониторинга
и прогнозирования экологического состояния
промышленных территорий.....21

Nazarov Shahzod Erkinovich

Models, computational algorithms and information
systems for monitoring and forecasting the
ecological state of industrial areas.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ
List of published works.....43

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI Phd.13/30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASHI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROV SHAHZOD ERKINOVICH

**SANOAT HUDUDLARNING EKOLOGIK HOLATINI MONITORING VA
BASHORATLASH UCHUN MODELLAR, HISOBLASH ALGORITMLARI
VA AXBOROT TIZIMLARI**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

BUXORO – 2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3648 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya aftoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.airi.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ravshanov Normahmad
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxammadiyeva Dildora Kabilovna
texnika fanlari doktori, dotsent

Urunbayev Jasur Erkinovich
fizika-matematika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Dissertatsiya himoyasi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi Phd.13/30.12.2021.T.142.01 Ilmiy kengashning 2023 yil «12» dekabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Bo'z-2 dahasi, 17A-uy. tel.: (99871) 263-41-98, e-mail: info@airi.uz).

Dissertatsiya bilan Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (registratsiya raqami № 35). Manzil: 100125, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Bo'z-2 dahasi, 17A-uy. tel.: (99871) 263-41-98).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «30» noyabr kuni tarqatildi.
(2023 yil «24» noyabr dagi 8-raqamli reestr bayonnomasi).



L.F. Sulyukova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, katta ilmiy hodim

F.M. Nuraliev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

Sh.A. Sadullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
fizika matematika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa fan doktori (Phd) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda atmosferani ifloslantiruvchi moddalarning ko‘chishi va diffuziyasi jarayonlarini o‘rganish uchun matematik apparatlar va kompyuter tizimlarini yaratish va takomillashtirishga katta e‘tibor berilmoqda. Ushbu ilmiy yo‘nalish doirasida shaharlashgan hududlarning atmosfera havosining ifloslanish darajasini baholash va bashorat qilish vazifalari, o‘rganilayotgan massa ko‘chishi jarayoniga ko‘plab qo‘shimcha omillar – shaharsozlik, ifloslanish manbalarining xilma-xilligi, yashil qoplam maydoni va boshqalar ta‘sir ko‘rsatganda alohida qiziqish uyg‘otadi. Shaharlashgan hududlar atmosferasining ekologik holatini kuzatish va bashorat qilish muammolarini hal qilish uchun matematik va kompyuter modellashtirish usullarini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq muammolar bir necha o‘n yillar davomida barcha sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan AQSh, Kanada, Janubiy Amerika mamlakatlari, Yevropa Ittifoqi, Janubi-Sharqiy Osiyo, Xitoy, Hindiston, Rossiya, Avstraliya va boshqalarda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Atmosferaning zararli chiqindilar bilan ifloslanishini baholash va bashorat qilish uchun matematik modellar, sonli algoritmlar, kompyuter modellashtirish tizimlarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan maqsadli ilmiy tadqiqotlar olimlar jamoalari tomonidan dunyo bo‘ylab olib borilmoqda. Olib borilayotgan ilmiy ishlar natijalari sanoati shaharlashgan hududlar atrof-muhitidagi ekologik jarayonlarning borishi to‘g‘risida yangi qonuniyatlarni aniqlash, atmosferaning pastki qatlamlarini statsionar va mobil manbalardan zaharli chiqindilar bilan ifloslanishi natijasida yuzaga keladigan salbiy o‘zgarishlarni aniqroq bashorat qilish imkonini beradi.

O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi, atmosfera ifloslanishining kuchayishi muammolarining dolzarbligini hisobga olgan holda davlat boshqaruvi organlari tomonidan "yashil" iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar, jumladan, atmosfera havosining sanitariya me‘yorlarini nazorat qilishning umumdavlat tizimini takomillashtirish faol amalga oshirilmoqda. Shunday qilib, yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasida "...atrof-muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini bashorat qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy ravishda axborot bilan ta‘minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va ularning atrof-muhitga ta‘siri monitoringi ..." qayd etilgan¹.

Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish atmosfera havosining sanitariya me‘yorlarini baholash, monitoring va bashorat qilish, texnogen va tabiiy ifloslanish manbalari ta‘siri tufayli ekologik vaziyatdagi salbiy o‘zgarishlar to‘g‘risida erta ogohlantirish uchun tadqiqotchilar va atrof-muhit xizmatlari mutaxassislari tomonidan foydalaniladigan matematik modellashtirish usullarini rivojlantirmasdan va ularning asosida kompyuter tizimlarini yanada takomillashtirmasdan mumkin emas.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida"2022 yil 28-yanvardagi PF 60-son Farmoni.

Mazkur dissertatsiya tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida" gi PF 60-son Farmoni, 2017 yil 21-apreldagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi PF 5024-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2-dekabrdaqi PQ 436-son "O'zbekiston Respublikasini "Yashil" iqtisodiyotga o'tkazishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi , O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5-sentabrdagi 737-sonli "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitni monitoring qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi qarorida nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, fan va texnologiyalar sohalarida qabul qilingan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'rganilayotgan ilmiy muammolarning hozirgi holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ekologiya va atmosfera havosini muhofaza qilishning o'ziga xos amaliy muammolarini hal qilish, birinchi navbatda, atmosferadagi murakkab massa ko'chishi jarayonlarini matematik modellashtirish uchun konstruktiv tizimli metodologiyani yaratishni talab qiladi. Muammoning to'g'ri tartibga solingan matematik apparatidan foydalanish, natijada sanitariya-gigiena me'yorlarini buzish oqibatlarining oldini olishga, shuningdek, muvozanatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga qaratilgan sanoat va shaharlashgan hududlarning ekologik holatini baholash va bashorat qilish imkoniyatini beradi.

Atmosferada, shu jumladan shaharlashgan hududlarda zararli moddalarning tarqalishi jarayonlarini matematik modellashtirish masalalari G.A. Briggs, S.R. Hanna, E. Weber, P. Zambelli, R. Lange, R.I. Onikula, N.L. Byzova, M.E. Berlyand, S.A. Solodkov, E.L. Genixovich, Yu.A. Anoxina va boshqa olimlarning ishlarida o'rganilgan. Atmosfera havosining ekologik holatini modellashtirish, tahlil qilish va bashorat qilish uchun avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqish masalalari G.V. Averin, A.A. Lyubimov, V.Y. Volkov, Y.D. Edelshteyn, V.V. Bugrovskiy, A.V. Bizikin rahbarligida faol o'rganilgan.

O'zbekistonda atmosferada zararli aralashmalar chiqindilarini ko'chishi va diffuziya muammolarini hal qilish uchun matematik modellar, hisoblash usullari va algoritmlari, shuningdek tegishli dasturiy vositalarni ishlab chiqish bilan F.B. Abutaliyev, K.S. Karimberdiyeva, M.L. Aryshanov, N.Ravshanov, B.S.Telemuratova, R. Mustafayeva, M.M. Xalmatov, T.V. Botirov va boshqalar rahbarligidagi olimlar jamoalari shug'ullanishgan va shug'ullanishda davom etmoqdalar.

Ko'pgina ilmiy nashrlarni tahlil qilish natijasida biz atmosferaga tashlangan zararli aralashmalarning ko'chishi va diffuziyasi jarayonlariga ko'plab omillar, shu jumladan, meteorologik sharoitlar, hududning orografik xususiyatlari, havoni

ifloslantiruvchi manbalar parametrlari, zararli aralashmalarning tasnifi, ifloslantiruvchi moddalarning fizik, mexanik va kimyoviy xususiyatlari va boshqalar ta'sir qiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ushbu omillarning o'rganilayotgan jarayonlarga ahamiyati va ta'sirini matematik modellashtirish nuqtai nazaridan butun dunyo olimlari tomonidan batafsil va ko'p marotaba o'rganilgan.

Shunga qaramay, ushbu ilmiy yo'nalish doirasida hali ham ma'lum bo'shliqlar mavjud. Atmosferadagi ifloslantiruvchi moddalarni ko'chishi va diffuziya jarayonlarining mavjud matematik modellari har doim ham shaharlashgan hududlarning ifloslanish konsentratsiyasi darajasini baholash va bashorat qilish muammolarini hal qilish uchun qo'llanilmaydi, chunki ular shahar sharoitlariga xos bo'lgan muhim omillarning o'zgarishini hisobga olmaydi. Xususan, yashil qoplamning ta'sirini hisobga olgan holda, atmosferadagi zararli moddalar konsentratsiyasini baholash va bashorat qilish muammolarini hal qilish uchun gidrodinamik modellar va sonli algoritmlarni ishlab chiqish, o'simlik elementlari tomonidan zaharli zarralarni yutish, shuningdek shahar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarining ta'sirini hisobga olgan holda yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Amaliy matematika va axborot texnologiyalari masalalarini matematik modellashtirish" (2019-2022) mavzusidagi tadqiqot ishlari hamda Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universitetining ilmiy-tadqiqot rejalariiga muvofiq A-OT-2021-108 – «Orolbo'yi mintaqasi atrof-muhitining ekologik holatini monitoring qilish va bashoratlashning axborot-tahliliy tizimini ishlab chiqish» (2021-2023), № AL-4724510231 – «Iqlim va shahar infratuzilmasining o'zgarishini hisobga olgan holda Toshkent shahrida atmosfera havosi sifati monitoring tizimi uchun dasturiy mahsulot yaratish» (2022-2023) loyihalari doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi sanoat hududlari atmosferasiga zararli aralashmalar emissiyasini diffuziya o'tkazish jarayonini o'rganish uchun matematik modellar, hisoblash algoritmlari va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoat hududlarining ekologik holatini monitoring va bashorat qilish uchun axborot modellari va ma'lumotlar bazasini yaratish;

turg'un, cheklanmagan muhitda ifloslantiruvchi moddalarning diffuziyasi jarayonining matematik modellarini ishlab chiqish va zarrachalarni o'simlik elementlari tomonidan yutilishini hisobga olgan holda bir, ikki va uch o'lchovli masalalarni hal qilish usullari;

atmosferada aerozol zarrachalarining o'simlik elementlari tomonidan yutilishini inobatga olgan holda zarrachalar diffuziyasining ko'p o'lchovli matematik modeli va uning sonli algoritmi;

fitomassaning balandligi va zichligini hisobga olgan holda o'simlik elementlari tomonidan aerosol zarralarini yutilishini tavsiflovchi funksional bog'liqlikni keltirib chiqarish;

ob-havo sharoiti, zarrachalarning cho'kish tezligi, o'simlik elementlari tomonidan zarrachalarni yutilishini hisobga olgan holda atmosferadagi mayda zarrachalarning diffuzion ko'chishini takomillashtirilgan matematik modeli ishlab chiqish;

sanoat hududlarida havo sifatini monitoring qilish va bashoratlash, shuningdek, ekologik nazorat tadbirlarini amalga oshirish va sanitariya me'yorlariga rioya qilish bo'yicha qarorlar qabul qilinishini qo'llab-quvvatlash uchun veb-ga asoslangan geoaxborot tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida sanoat hududlari va shaharlashgan hududlar atmosferasining chegara qatlamida zararli aralashmalarning atmosferada diffuzion ko'chish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti sifatida atmosferada zararli chiqindilarning ko'chish va tarqalish jarayonlarini tahlil qilish, bashoratlash uchun matematik modellar, sonli algoritmlar va dasturiy ta'minot tizimlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya tadqiqotlari davomida matematik modellashtirish va hisoblash tajribasi usullari, shuningdek dasturiy mahsulotlarni yaratish uchun obyektga yo'naltirilgan dasturlash texnologiyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turg'un cheklanmagan muhitda ifloslantiruvchi moddalarning diffuziya jarayonining matematik modeli va masalani bir, ikki va uch o'lchovlarda yechish usullarini ishlab chiqilgan;

o'simlik elementlari tomonidan yutilishi hisobga olingan holda aerosol zarralarining atmosferada diffuziyasining ko'p o'lchovli matematik modeli va masalani yechishning sonli algoritmi ishlab chiqilgan;

fitomassaning balandligi va zichligini hisobga olgan holda o'simlik elementlari tomonidan aerosol zarralarining yutilishini tavsiflovchi funksional bog'liqlik keltirib chiqarilgan;

meteorologik sharoitlar, zarrachalarning cho'kish tezligi, o'simlik elementlari tomonidan zarrachalarni yutilishini hisobga olgan holda atmosferadagi mayda zarrachalarning diffuziyasion ko'chishining takomillashtirilgan matematik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqilgan matematik apparat asosida meteorologik parametrlar, zarrachalarning fizik-mexanik xossalarini, cho'kish tezligi, shuningdek, o'simlik elementlari tomonidan zarrachalarni yutish omilini hisobga olgan holda atmosferadagi va sanoat maydonlarining pastki yuzasida zararli aralashmalar kontsentratsiyasini hisoblash va vizualizatsiya qilish uchun dasturiy ta'minot yaratildi;

ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot ifloslantiruvchi zarralar kontsentratsiyasi darajasini baholash va bashorat qilishning aniqligini 9-13% ga oshirish imkonini berdi, bu esa o'z navbatida mavjud sanoat ob'ektlari tomonidan sanitariya me'yorlarini buzish xavfini kamaytirish bo'yicha o'z vaqtida qarorlar qabul qilish

hamda Buxoro viloyatida yangi ishlab chiqarish ob'yektlarini optimal joylashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi zararli moddalarning atmosferadagi diffuzion ko'chish tenglamalari va masalalarning chegaraviy shartlari massa, energiya va impulsning muvozanat va saqlanish qonunlariga qat'iy muvofiq tuzilganligi bilan asoslanadi. Sonli usullardan foydalanganda approksimatsiyaning zaruriy aniqligi va hisoblash jarayonining yaqinlashuvi ta'minlanadi, hisoblash tajribalarining natijalari esa o'rganilayotgan jarayonning fizik tabiatiga zid kelmaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati atmosferada aerosol zarralarining diffuzion ko'chish jarayonini ob-havo omillari, zarrachalarning fizik-mexanik xossalarini, hamda o'simlik elementlarining yutish omilini hisobga olgan holda matematik modellarini ishlab chiqish va takomillashtirish, shuningdek, o'zgaruvchilarni almashtirish va fizik xususiyatlarga ajratish usulidan foydalangan holda masalani yechish uchun yuqori tartibli approksimatsiyali yanada samarali sonli algoritmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Dissertatsiya tadqiqoti natijalarining amaliy ahamiyati qattiq mayda o'lchamli zarrachalar va gazsimon aralashmalarining atmosferaning chegara qatlamida tarqalish jarayonini kuzatish va bashoratlash, atrof-muhitga zararli sanoat chiqindilarining salbiy ta'sirni baholash va zarur ekologik chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash masalalarini yechish uchun dasturiy majmuani ishlab chiqish bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat hududlarida atmosferaning ekologik holatini kuzatish va bashoratlash uchun matematik modellar, hisoblash algoritmlari va dasturiy majmuadan foydalanish asosida:

mayda zarrachali moddalarning kontsentratsiyasi darajalarini hisoblash va vizuallashtirishni avtomatlashtirish uchun axborot, matematik va dasturiy ta'minot, uch yo'nalishda shamol tezligi, aerosol zarrachalarning cho'kish tezligi, shuningdek o'simliklarning yutilish koeffitsientini hisobga olgan holda «GRAND POLIMER PLAST» MCHJ faoliyatiga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati hokimligining 2023 yil 8 sentyabrdagi 24/5525-son ma'lumotnomasi). Joriy qilish natijasida polietilen mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun qozonxonalarda yoqiladigan gaz va uglevodorod yoqilg'isi yoqilishi natijasida atmosfera havosidagi zararli mayda zarrachalar kontsentratsiyasini baholash aniqligi 9-10 foizga oshirildi;

atmosferaning chegara qatlamida va yer yuzasida zararli aerosol aralashmalarining kontsentratsiyasini hisoblash uchun matematik modellar, hisoblash algoritmlari va dasturiy ta'minot, zarrachalarning o'simliklar tomonidan yutilishi, ifloslantiruvchi zarrachalarning fizik-mexanik xususiyatlarini, ob-havo sharoiti hisobga olgan holda «TO'LA ORTIQ RAJAB STROY SERVIS» MCHJ faoliyatiga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati hokimligining 2023 yil 8 sentyabrdagi 24/5525-son ma'lumotnomasi). Joriy qilinishi natijasida atmosfera havosidagi noorganik changning mayda zarralari kontsentratsiyasini baholashning aniqligi 9-11% ga oshirildi;

atmosferaning chegara qatlami va yer yuzasida zararli aerozol zarrachalarni o‘simlik qoplami elementlari tomonidan yutilishini hisobga olgan holda kontsentratsiyasini aniqlash bo‘yicha hisob-kitoblarni avtomatlashtirish bo‘yicha matematik va dasturiy ta‘minot «ELBETON» MCHJ faoliyatiga joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati hokimligining 2023 yil 8 sentyabrdagi 24/5525-son ma‘lumotnomasi). Joriy qilinishi natijasida quruq qurilish aralashmalarini tashish, yuklash/tushirish paytida, shuningdek, ezilgan tosh ishlab chiqarish uchun maydalash uskunalarning ishlashi paytida chiqadigan noorganik changning mayda zarralarini atmosfera havosidagi kontsentratsiyasini bashoratlash 8-11% ga oshirildi;

atmosferada zararli moddalarning kontsentratsiyasi darajalarini hisoblash va vizuallashtirishni avtomatlashtirish uchun axborot, matematik va dasturiy ta‘minoti Buxoro viloyati Tabiat resurslari boshqarmasi faoliyatida joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati hokimligining 2023 yil 8 sentyabrdagi 24/5525-son ma‘lumotnomasi). Natijada Buxoro viloyati sanoat hududlarining atmosferada zararli moddalarning kontsentratsiyasi darajasini bashoratlash aniqligi 12-13% oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta Respublika konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy maqola chop etilgan bo‘lib, shundan 7 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlardagi jurnal maqolalari, shu jumladan, 2 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida chop etilgan hamda elektron hisoblash mashinalari uchun dasturni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi 3 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obykti va predmeti tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarini joriy qilish ro‘yxati, shuningdek, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya birinchi bobi «**Zararli moddalarning atmosferada diffuzion ko‘chish jarayonlarini matematik modellashtirish muammolarining hozirgi holatini tahlil qilish**» deb nomlanib, beshta paragrafdan tashkil topgan. Birinchi paragrafda shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining atmosfera havzalarida potentsial ifloslanish manbalarining tahlili, shuningdek sanoat hududlari uchun

atmosfera havosi sifatining standart ko'rsatkichlari keltirilgan. Ikkinchi paragrafda yirik sanoatlashgan shaharlar sharoitida atmosfera ifloslanishining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. To'rtinchi paragrafda atmosferaga ifloslanishning ko'chish va diffuziya jarayonlarini modellashtirish uchun keng qo'llaniladigan bir qator dasturiy mahsulotlarning funksional imkoniyatlari, shuningdek, afzalliklari va kamchiliklari yoritib berilgan. Bobning beshinchi paragrafida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiya ishining «**Yashil qoplamlarning ta'sirini hisobga olgan holda zararli moddalarning diffuzion ko'chish jarayonlarini matematik modellashtirish**» deb nomlangan ikkinchi bobi to'rt paragrafdan iborat. Birinchi paragraf atmosferaning sirt qatlamida zararli aerosol zarralarining tarqalish jarayonini bir o'lchovli matematik model asosida o'rganishga bag'ishlangan. Statsionar muhitda bir o'lchovli diffuziya tenglamasining olingan analitik yechimi dasturiy vosita yordamida amalga oshirilgan. Ikkinchi paragrafda oldingi jarayonga o'xshash ikki o'lchovli model ko'rib chiqilgan. Taklif etilayotgan model havo oqimi tezligi nolga teng bo'lganda atmosferaning sirt qatlamida ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarining diffuziya jarayonini tavsiflaydi. Bir va ikki o'lchovli holatlar uchun matematik modelning asosiy parametrlariga qarab manba atrofida ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasining o'zgarishini bashorat qilish uchun hisoblash tajribalari natijalari keltirilgan. Uchinchi paragraf konvektiv ko'chishni hisobga olmagan holda atmosferada oniy nuqtaviy manbasidan modda tarqalishining uch o'lchovli matematik modelini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Hisob-kitoblar ifloslanish manbasining turli quvvatlarida amalga oshirilgan. To'rtinchi paragrafda aerosol zarralarining atmosferaga tarqalishining ko'p o'lchovli matematik modeli, ularning atrof-muhit tomonidan yutilishini hisobga olgan holda va masalani yechishning sonli algoritmi ishlab chiqilgan. Ushbu model gidromexanikaning tenglamasini o'z ichiga oladi:

$$\frac{\partial \theta}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial z} \left(\kappa \frac{\partial \theta}{\partial z} \right) + \mu \left[\frac{\partial^2 \theta}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \theta}{\partial y^2} \right] - \theta \sigma + \delta Q \quad (1)$$

mos ravishda boshlang'ich va chegaraviy shartlar:

$$\theta|_{t=0} = \theta^0; \quad (2)$$

$$-\mu \frac{\partial \theta}{\partial x} \Big|_{x=0} = \xi (\theta_E - \theta); \quad \mu \frac{\partial \theta}{\partial x} \Big|_{x=L_x} = \xi (\theta_E - \theta); \quad (3)$$

$$-\mu \frac{\partial \theta}{\partial y} \Big|_{y=0} = \xi (\theta_E - \theta); \quad \mu \frac{\partial \theta}{\partial y} \Big|_{y=L_y} = \xi (\theta_E - \theta); \quad (4)$$

$$-\kappa \frac{\partial \theta}{\partial z} \Big|_{z=0} = (\beta \theta - f_0); \quad \kappa \frac{\partial \theta}{\partial z} \Big|_{z=H_z} = \xi (\theta_E - \theta), \quad (5)$$

bu yerda θ - tarqaluvchi zararli moddaning konsentratsiyasi; θ^0 - atmosferadagi zararli moddaning boshlang'ich konsentratsiyasi; θ_E - qaralayotgan soha chegarasidan kirib keluvchhi zararli moddalarning konsentratsiyasi; σ - zararli

moddalarning atmosferada yutilish koeffitsiyenti; δ – Dirak funksiyasi; x, y, z – koordinata sistemasi; t – vaqt; μ, κ – diffuziya va turbulentslik koeffitsiyentlari; β – zarrachalarning yer sathi bilan ta'sirlashish koeffitsiyenti; Q – manbalarning quvvati; ξ – hisob chegarasi orqali tashqi muhit bilan massa almashinuv koeffitsiyenti; f_0 – yer sathidan ko'tariladigan zarrachalar miqdori; α – o'simlik elementlarning yutilish koeffitsiyenti.

(1)-(5) masalani sonli yechish uchun chekli ayirmalar usulidan foydalanilgan. (1) - (5) model sonli algoritmnining dasturiy ta'minoti atmosferada zaharli moddalar kontsentratsiyasining vaqt o'tishi bilan tarqalanishini bashorat qilish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning ishining «**Atmosferaning chegara qatlamida ifloslantiruvchi moddalar kontsentratsiyasi maydonlarini baholash va bashorat qilishning sonli algoritmlari**» deb nomlangan uchinchi bobida ob-havo sharoitlari, zarrachalarning cho'kish tezligini, shuningdek, zarrachalarni o'simliklar tomonidan yutilishi kabi muhim parametrlarni hisobga olgan holda, atmosferadagi mayda zarralarni diffuzion ko'chish jarayonini matematik model va sonli algoritmlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Dissertatsiyada aerazol zarralarining atmosferaga ko'chishi va tarqalishi jarayonining tabiati haqidagi qabul qilingan taxminlar va gipotezalarni hisobga olgan holda quyidagi ko'p o'lchovli tenglama bilan tavsiflangan matematik modelni taklif etildi:

$$\begin{aligned} \frac{\partial \theta}{\partial t} + u \frac{\partial \theta}{\partial x} + v \frac{\partial \theta}{\partial y} + (w - w_g) \frac{\partial \theta}{\partial z} + \theta(\sigma + \alpha) = \\ = \mu \frac{\partial^2 \theta}{\partial x^2} + \mu \frac{\partial^2 \theta}{\partial y^2} + \frac{\partial}{\partial z} \left(\kappa \frac{\partial \theta}{\partial z} \right) + \delta Q \end{aligned} \quad (6)$$

mos ravishda boshlang'ich va chegara shartlar:

$$\theta|_{t=0} = \theta^0; \quad (7)$$

$$-\mu \frac{\partial \theta}{\partial x} \Big|_{x=0} = \xi(\theta_E - \theta); \quad \mu \frac{\partial \theta}{\partial x} \Big|_{x=L_x} = \xi(\theta_E - \theta); \quad (8)$$

$$-\mu \frac{\partial \theta}{\partial y} \Big|_{y=0} = \xi(\theta_E - \theta); \quad \mu \frac{\partial \theta}{\partial y} \Big|_{y=L_y} = \xi(\theta_E - \theta); \quad (9)$$

$$-\kappa \frac{\partial \theta}{\partial z} \Big|_{z=0} = (\beta\theta - f_0); \quad \kappa \frac{\partial \theta}{\partial z} \Big|_{z=H_z} = \xi(\theta_E - \theta), \quad (10)$$

bu yerda w_g – zarrachalarning cho'kish tezligi; u, v, w – shamolning uch yo'nalishidagi tezliklari.

Shoxlar va barglar kabi o'simlik elementlarini modellashtirish katta hisoblash xarajatlarini talab qilganligi sababli, o'simliklarning havo oqimiga ta'siri fazoda o'rtacha hisoblanadi va masalaning qo'yilishiga tegishli yutilish va manba atamalarini qo'shish orqali hisobga olinadi:

$$\alpha(x, y, z, U) = -\rho C_d L(x, y, z) U u_i,$$

bu yerda ρ – havoning zichligi; C_d – qarshilik koeffitsienti ($C_d=0.3$); $L(x, y, z)$ – o‘simlik barg yuzasi zichligi profili (yoki birlik hajmdagi barg yuzasining o‘lchovi); U – havo oqimi tezligi; u_i – qaralayotgan yo‘nalishdagi tezligi.

$L(x, y, z)$ o‘simlik massasining birlik hajmiga yoki maydoniga to‘g‘ri keladigan umumiy barg yuzasi sifatida aniqlanadi:

$$L(x, y, z) = L_m \left(\frac{h - z_m}{h - z} \right)^n / \exp \left[n \left(1 - \frac{h - z_m}{h - z} \right) \right],$$

bu yerda

$$n = \begin{cases} 6 & 0 \leq z < z_m; \\ 0,5 & z_m \leq z \leq h; \end{cases}$$

L_m – o‘simliklar ichida barg maydonining maksimal zichligi; z – balandlik; z_m – balandlik, L_m ($z_m = 0,4 h$) bo‘lgan holda; h – o‘simliklar balandligi.

Ikkinchi paragrafda aerosol zarrachalarining atmosfera chegara qatlamida tarqalish masalasini yechimining hisoblash algoritmi o‘zgaruvchilarni almashtirish usulida ishlab chiqilgan. Uchinchi paragrafda esa fizik jarayonlarga ajratish usuli bilan qo‘yilgan masalani yechish algoritmini ishlab chiqish qaralgan.

Ko‘rinib turibdiki, (6) tenglamada uchta fizik jarayon aniq ajratilgan: birinchisi, moddaning atmosfera havo massasining harakat yo‘nalishi bo‘yicha ko‘chishi; ikkinchisi – atmosferada moddaning diffuziyasi, shuningdek, uchinchi jarayonni ham ajratish mumkin – asosan yuqori namlik tufayli moddaning atmosfera havo massasiga yutilishi. Bunday vaziyatni hisobga olgan holda, har bir vaqt qatlamida fizik jarayonlar bo‘yicha bo‘linish usulini qo‘llash juda oqilona bo‘ladi. Shuning uchun qo‘yilgan masalani samarali yechish uchun uni fizik jarayonlarga – ko‘chish, diffuziya va yutilish qismlariga ajratamiz.

Moddaning ko‘chish jarayoni uning trayektoriya bo‘ylab saqlanishini A masala sifatida ko‘rib chiqiladi:

$$\frac{\partial \theta_1}{\partial t} + u \frac{\partial \theta_1}{\partial x} + v \frac{\partial \theta_1}{\partial y} + (w - w_g) \frac{\partial \theta_1}{\partial z} = \frac{1}{3} \delta Q \quad (11)$$

mos ravishda boshlang‘ich va chegaraviy shartlar

$$\theta_1|_{t=0} = \theta_3^n; \quad (12)$$

$$-\mu \frac{\partial \theta_1}{\partial x} \Big|_{x=0} = \xi (\theta_E - \theta_1); \quad \mu \frac{\partial \theta_1}{\partial x} \Big|_{x=L_x} = \xi (\theta_E - \theta_1); \quad (13)$$

$$-\mu \frac{\partial \theta_1}{\partial y} \Big|_{y=0} = \xi (\theta_E - \theta_1); \quad \mu \frac{\partial \theta_1}{\partial y} \Big|_{y=L_y} = \xi (\theta_E - \theta_1); \quad (14)$$

$$-\kappa \frac{\partial \theta_1}{\partial z} \Big|_{z=0} = (\beta \theta_1 - f_0); \quad \kappa \frac{\partial \theta_1}{\partial z} \Big|_{z=L_z} = \xi (\theta_E - \theta_1). \quad (15)$$

Atmosferada zararli moddalarning diffuziyasi jarayonini B masala sifatida ko‘rib chiqamiz:

$$\frac{\partial \theta_2}{\partial t} = \mu \frac{\partial^2 \theta_2}{\partial x^2} + \mu \frac{\partial^2 \theta_2}{\partial y^2} + \frac{\partial}{\partial z} \left(\kappa \frac{\partial \theta_2}{\partial z} \right) + \frac{1}{3} \delta Q \quad (16)$$

mos ravishda boshlang'ich va chegaraviy shartlar

$$\theta_2|_{t=0} = \theta_1^{n+1}; \quad (17)$$

$$-\mu \frac{\partial \theta_2}{\partial x} \Big|_{x=0} = \xi(\theta_E - \theta_2); \quad \mu \frac{\partial \theta_2}{\partial x} \Big|_{x=L_x} = \xi(\theta_E - \theta_2); \quad (18)$$

$$-\mu \frac{\partial \theta_2}{\partial y} \Big|_{y=0} = \xi(\theta_E - \theta_2); \quad \mu \frac{\partial \theta_2}{\partial y} \Big|_{y=L_y} = \xi(\theta_E - \theta_2); \quad (19)$$

$$-\kappa \frac{\partial \theta_2}{\partial z} \Big|_{z=0} = (\beta \theta_2 - f_0); \quad \kappa \frac{\partial \theta_2}{\partial z} \Big|_{z=L_z} = \xi(\theta_E - \theta_2). \quad (20)$$

Atmosferada zararli moddalarning havo massasidagi zarrachalarning yutilishini va ushlab qolinishini hisobga olgan holda V masala sifatida ko'rib chiqamiz:

$$\frac{\partial \theta_3}{\partial t} + \sigma \theta_3 + \alpha \theta_3 = \frac{1}{3} \delta Q \quad (21)$$

boshlang'ich va chegaraviy shartlar

$$\theta_3|_{t=0} = \theta_2^{n+1}; \quad (22)$$


$$-\mu \frac{\partial \theta_3}{\partial x} \Big|_{x=0} = \xi(\theta_E - \theta_3); \quad \mu \frac{\partial \theta_3}{\partial x} \Big|_{x=L_x} = \xi(\theta_E - \theta_3); \quad (23)$$

$$-\mu \frac{\partial \theta_3}{\partial y} \Big|_{y=0} = \xi(\theta_E - \theta_3); \quad \mu \frac{\partial \theta_3}{\partial y} \Big|_{y=L_y} = \xi(\theta_E - \theta_3); \quad (24)$$


$$-\kappa \frac{\partial \theta_3}{\partial z} \Big|_{z=0} = (\beta \theta_3 - f_0); \quad \kappa \frac{\partial \theta_3}{\partial z} \Big|_{z=L_z} = \xi(\theta_E - \theta_3). \quad (25)$$

Shunday qilib, dastlabki masalani fizik jarayonlarga ajratgandan so'ng, uchta qism masala (11)-(15), (16)-(20) va (21)-(25) lar hosil bo'ladi, ularni chekli-ayirmalar usuli bilan yechish mumkin. Ammo bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, A qism masalaning yechimi B qism masala uchun boshlang'ich shart, B qism masalaning yechimi esa V qism masala uchun boshlang'ich shart bo'lib xizmat qiladi, mos ravishda V qism masalaning yechimi keyingi vaqt qatlamida A qism masala uchun boshlang'ich shart bo'lib xizmat qiladi.

Bobning oxirgi paragrafida atmosferaning chegara qatlamidagi zararli moddalar konsentratsiyasining tarqalishini baholash va bashorat qilish uchun hisob-kitob tajribalari natijalari va grafiklar ko'rinishida keltirilgan.



1-rasm. $Q = 1000 \text{ mg/m}^3\text{s}$; $H = 50 \text{ м}$; $t = 4$ soat bo'lganda atmosferadagi zararli moddalarning ko'chishi va diffuziyasi dinamikasi.




2-rasm. $Q = 1000 \text{ mg/m}^3\text{s}$; $H = 50 \text{ м}$; $t = 24$ soat bo'lganda atmosferadagi zararli moddalarning ko'chishi va diffuziyasi dinamikasi.




3-rasm. Uchta manba $Q = 800 \text{ mg/m}^3\text{s}$; $Q = 1000 \text{ mg/m}^3\text{s}$; $Q = 900 \text{ mg/m}^3\text{s}$; $t = 10$ soat bo'lganda atmosferadagi zararli moddalarning ko'chishi va diffuziyasi dinamikasi.

Скорости ветра в заданных направлениях




Скорости ветра за заданный промежуток времени




4-rasm. Uchta manba $Q = 800 \text{ mg/m}^3\text{s}$; $Q = 1000 \text{ mg/m}^3\text{s}$; $Q = 900 \text{ mg/m}^3\text{s}$; $t = 48$ soat bo'lganda atmosferadagi zararli moddalarning ko'chishi va diffuziyasi dinamikasi.

Скорости ветра в заданных направлениях




Скорости ветра за заданный промежуток времени



Hisoblash tajribalari natijalari shuni ko‘rsatdiki, atmosferadagi aerozollar kontsentratsiyasining o‘zgarishi sezilarli darajada kun davomida shamol tezligining haqiqiy o‘zgarishiga, zarrachalarning o‘simlik elementlari tomonidan yutilishini tavsiflovchi koeffitsientga va gorizonta diffuziya, vertikal turbulentlik koeffitsientiga bog‘liqligi aniqlandi. Shamol tezligining kattalashishi bilan zararli moddalarning kontsentratsiyasi manba atrofida to‘planishi kuzatilmaydi, tarqalish sohasi esa vaqt o‘tishi bilan kattalashadi.

Dissertatsiyaning «Sanoat hududlari atmosferasining ekologik holatini tahlil etish, bashoratlash va bashoratlash uchun dasturiy ta‘minot» deb nomlangan to‘rtinchi bobida atmosferaning ekologik holatini bashoratlash va monitoring qilish masalasining hisoblash tajribalarini avtomatlashtirish dasturini yaratish va funksional tamoyillari bayon qilingan.

Sanoat hududlarning atmosfera havosi sifatini monitoring qilish uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta‘minot havoning ifloslanishi, ob-havo sharoiti va zararli aralashmalar kontsentratsiyasining tarqalishini bashoratlash to‘g‘risida katta hajmdagi ma‘lumotlarni to‘plash va qayta ishlash orqali foydalanuvchilarga dolzarb ma‘lumotlarni taqdim etishni o‘z ichiga oladi, shuningdek tizim ma‘lumotlar bazasida belgilangan ma‘lumotlar majmuasini saqlaydi. Asosiy funksional bloklarning diagrammasi va tizim ichidagi ma‘lumotlar harakati 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Atmosfera muhitini monitoring qilish tizimi doirasida ish jarayonlari va ma‘lumotlar aylanishi sxemasi.

Tadqiqot ob‘ektining axborot modelini ishlab chiqish va ma‘lumotlar bazasi tuzilmasini loyihalashda ishlab chiqilgan tizimdan kutilayotgan amaliy natijalarni hisobga olgan holda, amaldagi me‘yoriy hujjatlar qoidalari va tarmoq ma‘lumotnomalari nomenklaturasi hisobga olingan.

Sanoat hududlarida havo sifatini monitoring qilish uchun ishlab chiqilgan vebga-yo‘naltirilgan tizimning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:


ma‘lumotlar bazasida havo ifloslanishining statsionar va mobil manbalari haqidagi ma‘lumotlarni kiritish va saqlash (5-rasm). Manba parametrlari tizimning admin qismida tegishli shakl yordamida kiritilishi mumkin;

ko‘rib chiqilayotgan hudud uchun asosiy ifloslantiruvchi moddalarning fon konsentratsiyasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni avtomatik import va ko‘rsatish (5-rasm);

ob-havo veb-xizmatlaridan, geolokatsiyani o‘lchash stantsiyalaridan ham joriy ob-havo sharoiti haqidagi ma‘lumotlarni avtomatik import qilish;

sonli hisob-kitoblar uchun yer qoplami turlari tavsifi bilan raqamli balandlik modeli va tematik xaritalarni avtomatik import qilish.

raqamli relyef modelini va sonli hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun yer qoplamasi turlarini tavsiflovchi tematik xaritalarni avtomatik ravishda import qilish.



6-rasm. Dasturning asosiy oynasi.

"APIlar" bo‘limida havo ifloslanishi monitoringi ma‘lumotlari, shuningdek, modellashtirish natijalari foydalanuvchilar va mashina mijozlari uchun turli formatlarda mavjud: JSON, JSONL, XML va YAML.


Menyuning istalgan bandini tanlashda yoki API ga dasturiy so‘rov yuborishda foydalanuvchi tanlangan formatda oladi (7-rasm).

```

1 // 20230606153919
2 // http://temon.uz/apijson/
3
4 {
5   {
6     "model": "mainapp.toshmon",
7     "pk": 1,
8     "fields": {
9       "vaqt": "2023-05-13T14:02:51.773Z",
10      "data_keys": "['co', 'no', 'no2', 'o3', 'so2', 'pm2_5', 'pm10', 'nh3']",
11      "data_values": "[213.62, 0.01, 0.17, 72.96, 0.75, 1.59, 2.64, 0]"
12    }
13  },
14  {
15    "model": "mainapp.toshmon",
16    "pk": 2,
17    "fields": {
18      "vaqt": "2023-05-13T14:03:51.705Z",
19      "data_keys": "['co', 'no', 'no2', 'o3', 'so2', 'pm2_5', 'pm10', 'nh3']",
20      "data_values": "[213.62, 0.01, 0.17, 72.96, 0.75, 1.59, 2.64, 0]"
21    }
22  },

```

7-rasm. JSON formatida asosiy ifloslantiruvchi moddalar kontsentratsiyasini o'lchash uchun avtomatik stantsiyadan ma'lumotlarni chiqarish.



8-rasm. Atmosferadagi ifloslantiruvchi moddalar kontsentratsiyasining berilgan balandlikda taqsimlanishini hisoblash natijalarini chiqarishga misol.

Axborot, matematik va dasturiy ta'minot ko'rinishida olingan natijalardan, masalan, sanoat hududlarida yangi qurilayotgan obyektlarni maqbul joylashtirish, shuningdek, atrof-muhitga sanoat chiqindilarining tarqalish ko'lamini, atmosferada va uning ostidagi sirtida zararli moddalarning konsentratsiyasini baholash uchun hamda ekologik vaziyatni buzish xavfini minimallashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilishda samarali foydalanish mumkin.

XULOSA

«Sanoat hududlarning ekologik holatini monitoring va bashoratlash uchun modellar, hisoblash algoritmlari va axborot tizimlari» mavzusidagi dissertatsiya ishi doirasida olingan asosiy ilmiy natijalar quyidagilardan iborat:

1. Atmosferada zararli mayda dispers zarrachalarning tarqalish jarayonini tadqiq qilish va matematik modellariga bag'ishlangan adabiyotlarning tahlili amalga oshirildi.

2. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari atmosfera havzalarining potensial ifloslanish manbalari, shuningdek, sanoat hududlari uchun atmosfera havosi sifatining standart ko'rsatkichlari tahlili o'tkazildi. Yirik sanoatlashgan shaharlarda havoning ifloslanish xususiyatlari ko'rib chiqildi.

3. Atmosferada, shu jumladan sanoat hududlarida, shaharlarda va boshqa murakkab landshaftga ega shaharlashgan hududlarda aralashmalarning tarqalish jarayonini matematik modellashtirishning turli yondashuv va usullarining tahlili o'tkazildi.

4. Sanoat hududlari atmosferasiga ifloslantiruvchi moddalarning tarqalish jarayonini modellashtirish, monitoring va bashorat qilish uchun keng qo'llaniladigan bir qator dasturiy mahsulotlarning funksional imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

5. Turg'un cheklanmagan muhitda ifloslantiruvchi moddalarning tarqalishi jarayonining matematik modeli o'simlik elementlarini zarrachalarni ushlab qolishini hisobga olgan holda va masalani bir, ikki va uch o'lchovlarda yechish usullari ishlab chiqildi.

6. Aerosol zarralarining o'simlik elementlarini tomonidan yutilishini hisobga olgan holda atmosferaga tarqalishining ko'p o'lchovli matematik modeli va uning sonli algoritmi ishlab chiqildi.

7. Ob-havo sharoiti, zarrachalarning cho'kish tezligi, o'simlik elementlari tomonidan zarrachalarni yutilishini hisobga olgan holda atmosferadagi mayda zarrachalarning diffuzion ko'chishining takomillashtirilgan matematik modeli ishlab chiqildi va masalani yechishda fizik jarayonlarga bo'linish usuli hamda o'zgaruvchilarni almashtirishning sonli algoritmlari ishlab chiqildi.

8. Fitomassaning balandligi va zichligini hisobga olgan holda o'simlik elementlari tomonidan aerosol zarralarini yutilishini tavsiflovchi funksional bog'liqligi olindi.

9. Atmosferaning chegaraviy qatlamida zararli moddalar konsentratsiyasining tarqalishini baholash va bashorat qilish vazifalari bo'yicha hisoblash tajribalari o'tkazildi.

10. Atrof-muhitni nazorat qilish va sanitariya me'yorlariga rioya qilish vazifalarida qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun sanoat hududlarida atmosfera havosining sifatini kuzatish va bashorat qilish uchun vebga-yo'naltirilgan geoaxborot tizimi ishlab chiqildi.

11. Dissertatsiya tadqiqotlari natijalari ruxsat etilgan maksimal sanitariya me'yorlarini hisobga olgan holda aerosol chiqindilari konsentratsiyasi darajasini

baholash va bashorat qilish uchun Buxoro viloyatining bir qator sanoat ob'yektlari va tabiiy resurs boshqarmasi faoliyatiga muvaffaqiyatli joriy etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ Phd.13/30.12.2021.Т.142.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

НАЗАРОВ ШАХЗОД ЭРКИНОВИЧ

**МОДЕЛИ, ВЫЧИСЛИТЕЛЬНЫЕ АЛГОРИТМЫ И
ИНФОРМАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ ДЛЯ МОНИТОРИНГА И
ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ
ПРОМЫШЛЕННЫХ ТЕРРИТОРИЙ**

05.01.07– Математическое моделирование. Численные методы и комплексы программ

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2. PhD/T3648.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.airi.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Равшанов Нормакмад
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Мухаммадиева Дилдора Кабиловна
доктор технических наук, доцент

Урунбаев Джасур Эркинович
доктор философии по физико-математическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Самаркандский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий

Защита диссертации состоится «12» декабрь 2023 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета Phd.13/30.12.2021. T.142.01 при Научно-исследовательском институте развития цифровых технологий и искусственного интеллекта. (Адрес: 100125, г. Ташкент, М.Улугбекский район, Буз-2, дом 17А. Тел.: (99871) 263-41-98; e-mail: info@airi.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института развития цифровых технологий и искусственного интеллекта (регистрационный номер № 35). (Адрес: 100125, г. Ташкент, М.Улугбекский район, Буз-2, дом 17А. Тел.: (99871) 263-41-98).

Автореферат диссертации разослан «30» ноябрь 2023 года.
(протокол рассылки № 8 от «24» ноябрь 2023 г.).



Л.Ф. Сулюкова
Председатель научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, старший научный сотрудник

Ф.М. Нуралиев
Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор

Ш.А. Садуллаева
Председатель научного семинара
при научном совете
по присуждению ученых степеней,
доктор физико-математических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире уделяется большое внимание разработке и усовершенствованию математического аппарата и компьютерных систем для исследования процессов транспорта и диффузии загрязняющих примесей в атмосфере. В рамках данного научного направления, особый интерес вызывают задачи оценки и прогнозирования уровней загрязнения атмосферного воздуха урбанизированных территорий, когда на исследуемый процесс массопереноса воздействует множество дополнительных факторов: городская застройка, разнообразие видов источников загрязнения, площадь зеленого покрова и т.д. Проблемы, связанные с дальнейшим усовершенствованием методов математического и компьютерного моделирования для решения задач мониторинга и прогнозирования экологического состояния атмосферы урбанизированных территорий, уже несколько десятилетий остаются наиболее актуальными во всех промышленно развитых и развивающихся странах, включая США, Канаду, страны Южной Америки, Европейского союза, Юго-восточной Азии, Китай, Индию, Россию, Австралию и другие.

Целевые научные изыскания, направленные на разработку и усовершенствование математических моделей, численных алгоритмов и компьютерных систем моделирования для оценки и прогнозирования загрязнения атмосферы вредными выбросами, проводятся коллективами ученых во всем мире. Результаты проводимой научной работы могут обеспечить возможность выявления новых закономерностей о течении экологических процессов в окружающей среде промышленных урбанизированных территорий, точнее прогнозировать негативные изменения вследствие загрязнения нижних слоев атмосферы токсичными выбросами из стационарных и мобильных источников.

В Узбекистане, в виду насущности проблем изменения климата, повышенного загрязнения атмосферы, органами государственного управления активно реализуются комплексные меры по переходу к «зеленой» экономике, включая усовершенствование общегосударственной системы контроля санитарных норм атмосферного воздуха. Так, в стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы отмечается «...наблюдение за окружающей средой, прогнозирование уровня ее загрязненности, постоянное обеспечение информацией государственного экологического контроля, осуществление мониторинга за состоянием загрязняющих источников и их воздействием на окружающую среду ...»¹.

Успешное выполнение указанных задач не представляется возможным без дальнейшего развития методов математического моделирования и усовершенствования, на их основе, компьютерных систем, используемых исследователями и специалистами экологических служб для оценки,

¹ Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы»

мониторинга и прогнозирования санитарных норм атмосферного воздуха, раннего предупреждения о негативных изменениях экологической обстановки вследствие воздействия техногенных и природных источников загрязнения.

Результаты, данного диссертационного исследования, в определенной мере служат выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы», №УП-5024 от 21 апреля 2017 года «О совершенствовании системы государственного управления в сфере экологии и охраны окружающей среды», Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-436 от 2 декабря 2022 года «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на «зеленую» экономику до 2030 года», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №737 от 5 сентября 2019 года «О совершенствовании системы мониторинга окружающей природной среды в Республики Узбекистан», а также в прочих нормативно-правовых документах, принятых в сферах экологии, охраны окружающей среды, науке и технологиях.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан IV. «Информатизация и развитие информационно-коммуникационных технологий».

